

Namangan viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi



26 noyabr kuni xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi.

Majlisda kun tartibidagi asosiy masalaga o'tishdan oldin Namangan viloyatidagi bugungi ahvol, turli soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan muhim o'zgarishlar haqida atroflicha fikr yuritildi.

Namangan viloyati, butun yurtimiz qatori, so'nggi yillarda katta rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu fikrning tasdig'i sifatida ko'p-ko'p raqam va misollarni olib kelish mumkin.

Agar faqatgina joriy yilning 9 oylik yakunlarini tahlil qiladigan bo'lsak, yalpi hududiy mahsulot 9 foiz, sanoat 17 foiz, qishloq xo'jaligi 5 foizdan ziyod, qurilish ishlari qariyb 12 foiz, chakana va pullik xizmatlar 13 foizdan ortiq o'sgani albatta e'tiborga loyiq.

Aytish joizki, Namangan viloyatini ham ijtimoiy, ham iqtisodiy nuqtai nazardan rivojlantirish masalasi davlatimiz, hukumatimizning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, 2009 yili qabul qilingan, Namangan shahrining me'moriy qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda shahar aholisining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan dastur doirasida bajargan ulkan ishlarimiz barchangizga yaxshi ma'lum, deb o'ylayman, dedi Islom Karimov. Ushbu dasturga muvofiq 140 ga yaqin yangi ob'ektlar ishga tushirilib, barcha manbalar hisobidan qariyb 325 milliard so'm mablag' o'zlashtirildi. Eng muhimi, bunday keng ko'lamlil qurilish va obodonchilik ishlari viloyatning barcha shahar va tumanlarida jadal amalga oshirilmoqda.

Sessiyada Namangan viloyatida o'tgan davr mobaynida erishilgan yutuq va marralar qatorida ko'pgina yo'nalishlarda, soha va tarmoqlarda kamchiliklar, aytish mumkinki, oqsoqlik holatlari mavjud ekani qayd etilib, ularning sabablari keng tahlil etildi.

Viloyat aholisining hayotiy ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlash, katta umid bilan hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarimizning yo'lini ochib berish, viloyat va tumanlarda boshqaruv ishlarining samarasini oshirish nuqtai nazaridan ko'zga tashlanadigan nuqsonlar, xulosa chiqaradigan masalalar haqida ochiq fikr almashib olindi.

Ayni vaqtda viloyatda mavjud bo'lgan juda katta imkoniyatlar ishga solinmayotgani, eng

tashvishli tomoni – ko'p yo'nalishlar bo'yicha Namangan boshqa viloyatlardan orqada qolayotganini ko'rib, afsuslanishga to'liq asoslar borligi aytib o'tildi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida viloyatda oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining amalga oshirilishi natijasida subventsia, ya'ni markaz byudjetidan yordam ulushi kamaygan bo'lsa-da, uning hajmi haligacha yuqori darajada saqlanib qolayotganiga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda mahalliy xarajatlarning 41 foizi mamlakatimiz byudjeti hisobidan qoplanib kelayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Eng achinarlisi, viloyatdagi 11 ta tumandan 10 tasida bu ko'rsatkich 60 foizdan oshib ketgan. Ayniqsa, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Uychi, Yangiqo'rg'on tumanlarida bu masala o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda.

Majlisda viloyatda ma'muriy-hududiy tuzilish masalasida yuzaga kelgan jiddiy muammolar haqida ham atroflicha fikr yuritildi. Ba'zi joylarda qaerda shahar, qaerda tuman boshlanadiyu qaerda tugashini aniq bilib bo'lmaydi. Bu borada, ayniqsa, Namangan tumani va Namangan shahrining ma'muriy chegarasini qaytadan ko'rib chiqish talab etiladi.

Amaldagi chegaralar shunday o'tkazilganki, shaharning rivojlanishi uchun zaxira yerlar nazarda tutilmagan va buning oqibatida tuman va shaharning yerlari tutashib ketgan. Eng yomoni, shahar va tumanlar rahbarlarining hududlarni rivojlantirish masalasidagi mas'uliyati va javobgarligi aniq emas. Bu masalani atroflicha ko'rib chiqib, uning amaliy yechimini topishimiz kerak.

Joriy yilda viloyatdagi 10 ta yirik sanoat korxonasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 36 milliard so'mga kamaygan, aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish esa mamlakatimizdagi o'rtacha ko'rsatkichdan 1,7 barobar orqada qolgan.

Eng yomoni, mavjud korxonalarining aksariyati to'la quvvat bilan ishlamayapti. Bunga esa ishlab chiqarishga korporativ boshqaruv tizimini joriy etish, menejment ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, bu borada zamonaviy usullardan foydalanish bo'yicha deyarli siljish yo'qligi sabab bo'lmoqda. Natijada buyurtma portfeli nomiga shakllantirilmoqda, bir qator korxonalarining moliyaviy ahvoli yildan-yilga yomonlashmoqda, ularning texnika va texnologiyalari eskiligicha qolmoqda.

Bugungi kunda viloyat bo'yicha 327 ta yoki jami sanoat korxonalarining 10 foizi faoliyat ko'rsatmayotgani, 16 foizi esa past quvvat bilan ishlayotganini afsus bilan qayd etishga to'g'ri keladi.

Bu boradagi ahvolni xolisona tahlil qilib aytadigan bo'lsak, viloyatning ko'pgina tumanlarida xomashyo va ishchi resurslari, tegishli infratuzilmalar yetarli bo'lishiga qaramasdan, zamonaviy sanoat korxonalari barpo etish bo'yicha tashabbus va amaliy

harakatlar deyarli sezilmayapti.

Shu munosabat bilan ilgari ham ko'p bor aytgan gapni yana takrorlashga to'g'ri keladi – faqat paxta, g'alla va sabzavot yetishtirish, faqat agrar soha hisobidan yangi korxonalar, uy-joylar qurish, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni o'z vaqtida to'lash, ijtimoiy ehtiyojlarni bajarish, ko'payib borayotgan aholimizni boqish mumkinmi, dedi Yurtboshimiz.

1991 yilda mamlakatimiz aholisi 20 million 500 ming kishi bo'lgan bo'lsa, mustaqillik yillarida xalqimiz 1,5 karra o'sib, 31 milliondan oshdi.

Hammamizga ma'lum, bizning yer va suv bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklangan. Agar mamlakatimizda yer va suv resurslari yetarli bo'lsa, O'zbekistonning bugungi holati butunlay boshqacha bo'lardi. Yer ham, suv ham tanqis bo'lib, ekin maydonlarining aksariyat katta qismi sho'rlangan, tuproq unumdorligi pasayib borayotgan hozirgi murakkab bir sharoitda O'zbekiston dehqonlarining qahramonona mehnati, matonati, chidamiga tan berib, ularning oldida har qancha ta'zim qilsak, arziydi, deb ta'kidladi Prezidentimiz. Lekin takror va takror aytishni zarur deb bilaman. Bizning eng ustuvor vazifamiz – bu tarkibiy o'zgarishlar siyosatini olib borish, sanoatni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish hisobidan iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishdan iborat.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida ayni shu maqsadda Namangan viloyatining sanoat salohiyati va infratuzilmasini keskin rivojlantirish bo'yicha 2016-2019 yillarga mo'ljallangan maxsus dastur ustida boshlangan ishlar o'z yakuniga yetayotganini ma'lum qilib, keng ko'lamlil bu dastur haqida to'xtalib o'tdi.

Mazkur dastur 5 ta asosiy yo'nalishdan iborat bo'lib, birinchi yo'nalish Namangan viloyatida yangi sanoat ob'ektlarini barpo etishga qaratilgan 16 ta yirik investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi. Bu haqda gapirganda, To'raqo'rg'on issiqlik elektr stantsiyasini bunyod etish loyihasi haqida alohida so'z yuritish o'rindir. Birinchi bosqichda, ya'ni, 2017 yilda har biri 450 megavatt quvvatga ega ikkita eng zamonaviy bug'-gaz turbinasini ishga tushirish bo'yicha bugungi kunda jadal ish olib borilmoqda. Ikkinchi bosqichda, ya'ni, 2020 yilda yana ikkita ana shunday turbinani ishga tushirish ko'zda tutilmoqda.

Ana shu ulkan loyihalarni amalga oshirish hisobidan biz nafaqat Namangan viloyati, balki butun Farg'ona vodiysining iqtisodiyoti hamda aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish, shu asosda yangi-yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Dasturning ikkinchi yo'nalishi viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha

25 ta investitsiya loyihasini qamrab oladi. Ularning orasida Namangan shahridagi "Elektr qurilmalari" aktsiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish quvvatini oshirishga qaratilgan loyiha muhim o'rin tutadi. Shu asnoda metall konstruksiyalar va quyi voltli elektr asbob-uskunalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchi yo'nalish – mahalliy hokimiyat idoralari va tadbirkorlik tuzilmalarining sanoat salohiyatini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha tashabbuslari asosida tuzilgan bo'lib, unda 177 ta loyiha o'rin olgan. Ularning orasida Uychi tumanida xorijiy investorlar bilan birgalikda tashkil etiladigan ipak-trikotaj mahsulotlar korxonasi, Namangan shahridagi "Kamol-medfarm" mas'uliyati cheklangan jamiyatida mahalliy shifobaxsh o'simliklardan dori-darmon va in'ektsiya vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, "FT tekstil grup" mas'uliyati cheklangan jamiyatida esa paxta xomashyosidan ipkalava va tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqa istiqbolli loyihalar diqqatga sazovordir.

Dasturning yana bir muhim yo'nalishi – muhandislik kommunikatsiyalari va ishlab chiqarish infratuzilmalarini qurishga doir bir qator loyihalardan tashkil topgan. Shular qatorida Pop tumanida elektrlashtirilgan "Angren – Pop" temir yo'li podstantsiyalarini elektr bilan ta'minlaydigan inshootlarni barpo etish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, viloyatdagi foydali qazilma konlarini aniqlashga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish va rivojlantirishga oid chora-tadbirlar ham mazkur hujjatning uzviy bir qismini tashkil etadi. Bu borada foydali qazilma konlarini topish ehtimoli bo'lgan Pop, Chust, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Chortoq tumanlarida geologiya-qidiruv ishlarini davom ettirish va ularning hududida yangi korxonalar qurish mo'ljallanmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, ushbu dastur doirasida kelgusi 4 yilda umumiy qiymati 5 milliard dollar bo'lgan 250 dan ziyod loyihani joriy etish va shuning hisobidan 16 mingdan ortiq ish o'rnini yaratish mo'ljallanayotgani, o'ylaymanki, bu sohada amalga oshiradigan ishlarimizning ko'lami va miqyosidan dalolat beradi, dedi Prezidentimiz.

Bugungi kunda har qanday davlatning taraqqiyotini iqtisodiyotning qon tomiri bo'lgan zamonaviy transport-kommunikatsiya tarmoqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada Namangan viloyatida, butun Farg'ona vodiysida qanday ulkan ishlarni amalga oshirayotganimizdan sizlar yaxshi xabardorsiz, albatta, dedi davlatimiz rahbari. Ayniqsa, 123 kilometr uzunlikdagi "Angren – Pop" elektrlashtirilgan temir yo'lining qurilishi O'zbekistonimiz hayotida ulkan tarixiy voqea bo'lishi shubhasiz. Dengiz sathidan qariyb 1,5 ming metr balandlikda joylashgan, murakkab tog' tizmalarini kesib o'tadigan, 19 kilometrdan ziyod tonnelni o'z ichiga oladigan, xitoylik sheriklarimiz bilan hamkorlikda barpo etilayotgan ushbu noyob loyiha bo'yicha hozirgi vaqtda 104 kilometr yo'l qurib bitkazildi.

Bu zamonaviy kommunikatsiya tarmog'i Farg'ona vodiysini mamlakatimizning boshqa hududlari bilan temir yo'l orqali ishonchli bog'lash imkonini beradi. Ayni vaqtda u Yevropa va Osiyo qit'alarini bir-biri bilan bog'laydigan transmilliy transport yo'lagining eng muhim bo'g'iniga aylanishi bilan ham muhim strategik ahamiyatga egadir.

Shuningdek, viloyatda yaqin 5 yil ichida 130 kilometrdan ortiq avtomobil yo'llari, qator yo'l o'tkazgichlar, transport infratuzilmasi ob'ektlari qurish rejalashtirilmoqda.

Bugungi kunda Namangan viloyatining aholisi qariyb 2 million 600 ming kishini tashkil etmoqda. Keyingi 5 yilda viloyat aholisining soni 10 foizga o'sdi. Tabiiyki, hayot o'zgarishi bilan ana shu insonlarning talab va ehtiyojlari, orzu-niyatlari, kerak bo'lsa, tashvish-muammolari ham ortib boradi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, viloyatda aholining real daromadlari 2009 yilga nisbatan jon boshiga ikki barobar ko'paygani, shu davrda o'rtacha oylik ish haqi qariyb ikki yarim marta, pensiya va ijtimoiy nafaqalar salkam uch marta ortganini alohida ta'kidlash lozim.

Ayni paytda aholiga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy infratuzilmalar tarmog'ini kengaytirish bo'yicha ham e'tiborga loyiq ishlar qilinmoqda. Masalan, joriy yilda viloyatda 89 ta ijtimoiy soha va infratuzilma ob'ekti foydalanishga topshirildi, ko'plab maktablar, bolalar sporti inshootlari, litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, viloyatning 34 ta qishloq aholi punkтини ichimlik suvi bilan ta'minlash yaxshilandi. Ana shu ishlarni izchil davom ettirish maqsadida Namangan shahrida kelgusi yilda 40 kilometr uzunlikdagi ikkinchi suv tarmog'ini qurish va ichimlik suvi tarmoqlarini modernizatsiya qilish ko'zda tutilmoqda.

Keyingi yillarda viloyatning qishloq massivlarida namunaviy loyihalar asosida 4 mingdan ortiq uy-joy qurib foydalanishga topshirildi. Mazkur massivlarda 216 kilometr ichimlik suvi tarmog'i, qariyb 100 kilometr elektr, 186 kilometr gaz tarmoqlari va 78 kilometr yo'l hamda 114 ta infratuzilma ob'ekti barpo etilgani bu uylarda yashayotgan odamlar uchun qulay hayot sharoitlarini tug'dirmoqda.

Kelgusi yilda viloyatda yana 911 ta ana shunday zamonaviy uy-joylarni tegishli muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari bilan birga barpo etish rejalashtirilgan bo'lib, bu qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Sessiyada tashkiliy masala ko'rildi. B.Yusupov Namangan viloyati hokimi vazifasidan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga ko'ra, viloyatning Mingbuloq tumani hokimi vazifasida ishlab kelayotgan Xayrullo Bozorov Namangan viloyati hokimi etib tasdiqlandi.

[O'zA](#)